

UDK: 811.512.133'221

NOVERBAL VOSITALARDAN IJTIMOIIY HAYOT VA TA'LIMDA
FOYDALANISH

Sobirova Nargiza Numonjonovna,
Qo'qon universiteti, katta o'qituvchisi
nanoshsober@gmail.com
ORCID ID 0000-0003-4211-5423

Annotatsiya. Ushbu maqolada noverbal vositalarning ijtimoiy hayot va ayniqsa ta'lim jarayonidagi o'rni hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Muloqotning verbal va noverbal shakllari o'zaro bog'liqlikda yoritilib, talabalarda ushbu ko'nikmalarni shakllantirish zarurati asoslab beriladi. Tadqiqotda tilshunoslikning lingvomadaniyatshunoslik, psixolingvistika va paralingvistika yo'nalishlari doirasida noverbal muloqot masalalariga oid ilmiy qarashlar ko'rib chiqiladi. Maqolada ta'lim jarayonida talabalar duch keladigan verbal va noverbal muloqotdagi muammolar tahlil etilib, ularning sabablari ochib beriladi. Shuningdek, Amerika maktablarida qo'llaniladigan sinfxona belgilar tili misolida noverbal vositalarning sinf boshqaruvi va dars samaradorligini oshirishdagi ahamiyati yoritiladi hamda ularni milliy ta'lim tizimida qo'llash imkoniyatlari muhokama qilinadi. Xulosa qismida noverbal vositalarni rivojlantirish orqali talabalarning shaxsiy va professional kompetensiyalarini oshirish mumkinligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: noverbal muloqot, verbal muloqot, jest, imo-ishora, sinf boshqaruvi, ta'lim jarayoni, paralingvistika, lingvomadaniyat.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение невербальных средств в социальной жизни и, в частности, в образовательном процессе. Вербальные и невербальные формы коммуникации рассматриваются во взаимосвязи, обосновывается необходимость формирования данных навыков у студентов. В рамках исследования освещаются научные подходы к проблеме невербальной коммуникации в направлениях лингвокультурологии, психолингвистики и паралингвистики. В статье анализируются проблемы вербальной и невербальной коммуникации, возникающие у студентов в образовательном процессе, а также раскрываются их причины. На примере системы классных сигналов, применяемых в школах США, показана значимость невербальных средств в управлении классом и повышении эффективности урока, а также рассматриваются возможности их внедрения в национальную систему образования. В заключении подчеркивается, что развитие навыков невербальной коммуникации способствует формированию личностных и профессиональных компетенций студентов.

Ключевые слова: невербальная коммуникация, вербальная коммуникация, жест, мимика, управление классом, образовательный процесс, паралингвистика, лингвокультурология.

Annotation. This article examines the role and significance of nonverbal means in social life, particularly in the educational process. Verbal and nonverbal forms of communication are analyzed in their interrelation, and the necessity of developing these skills among students is substantiated. The study reviews scientific approaches to nonverbal communication within the frameworks of linguoculturology, psycholinguistics, and paralinguistics. The paper analyzes common problems related to verbal and nonverbal communication encountered by students in the learning process and identifies their underlying causes. Using the example of classroom sign language applied in American schools, the study highlights the importance of nonverbal tools in classroom management and in improving lesson effectiveness, as well as discusses the possibilities of implementing such practices in the national education system. The conclusion emphasizes that developing nonverbal communication skills contributes to enhancing students' personal and professional competencies.

Keywords: nonverbal communication, verbal communication, gesture, facial expression, classroom management, educational process, paralinguistics, linguoculturology.

Kirish. Noverbal vositalarning oʻrni ijtimoiy hayotda beqiyos, shuningdek, biznes, savdo, sanʼat, siyosat, taʼlim jarayonida ham uning oʻrni juda muhim hisoblanadi. Inson yashar ekan, u ijtimoiy munosabatlarga kirishishga majbur boʻladi, bu esa oʻz borasida muloqot qilish ehtiyojini tugʻdiradi. Muloqot esa verbal va noverbal muloqotni oʻz ichiga oladi. **Muloqot** ikki yoki undan ortiq odamlar oʻrtasidagi bilish yoki baholash xususiyatiga ega boʻlgan axborot almashinuvida ularning oʻzaro taʼsirlashuvi sifatida taʼriflanadi [10]. Muloqot barcha tirik jonzotlarga xos, lekin inson nazarida u eng takomillashgan shakllarga ega boʻlib, nutq vositasida anglanadi. Muloqotda mazmun, maqsad va vositalar kabi nuqtayi nazarlar ajratiladi [2]. Verbal nutq haqida gapirganda O.Xamidova bu haqida quyidagicha yozadi: “Nutq muloqot vositasi sifatida bir vaqtning oʻzida ham axborot manbayi sifatida, ham suhbatdosh bilan oʻzaro taʼsirlashuv vositasi sifatida namoyon boʻladi [7]. Noverbal muloqot va xulq-atvor toʻgʻrisidagi ilmiy izlanishlar 1872-yilda Charlz Darvinning “Insonlar va hayvonlarda emotsiyalar ifodasi” [1] nomli asarining nashr qilinishi bilan boshlangan, degan fikr mavjud boʻlsa-da, noverbal nutq va uning koʻrinishlariga qiziqish miloddan avvalgi asrlarda yashagan faylasuf olimlarning ham eʼtiborida boʻlganligi maʼlumdir. Ikki ming yil avval Sitseron notiqlarni jestlardan toʻgʻri foydalanishga oʻrgatgan. Jestlar boʻyicha birinchi lugʻat Rim notigʻi Kvintalianga [9] tegishli. Djon Bolivarining 1664-yilda yozilgan, imo-ishoralar tiliga bagʻishlangan “Xirologiya yoki imo-ishoralar tili” va “Xiromaniya yoki qoʻl ritorikasi sanʼati” nomli asarlari insonning maʼnoli imo-ishoralarini oʻrganish borasida yangi qadam boʻldi [8]. Oʻsha vaqtdan buyon, soʻzlarsiz muloqot va xatti-harakatlarning turlari, taʼsiri va ularning ifoda etilishi boʻyicha koʻplab tadqiqotlar olib borildi. Noverbal muloqot, har qanday nolisoniy, yaʼni soʻzlarning maʼnosidan xoli boʻlgan harakat va jestlardan iborat boʻlgan barcha shakllarni oʻzida mujassam etgan til koʻrinishidir. Noverbal nutq oʻz ichiga xatti-harakatlar, jestlar va pozalardan tashqari paralingvistik va ekstralingvistik vositalarni ham oladi [4].

Yuqorida noverbal vositalar koʻp qoʻllaniladigan bir qator sanalgan kasblar ichida taʼlim sohasini alohida ajratib koʻrsatish mumkin. Taʼlimda noverbal vositalarning barcha turlaridan keng foydalaniladi. Xususan, Amerikaning boshlangʻich taʼlim maktablarida maxsus sinfxona belgilari tili oʻrgatiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Hozirgi kunda tilshunoslik tilda inson omilini oʻrganishga eʼtiborini qaratgan boʻlib, tilshunoslikning lingvomadaniyatshunoslik, psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, paralingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvopragmatika, assotsiativ tilshunoslik, diskurs tahlil doirasidagi tadqiqotlarda namoyon boʻlib kelmoqda. Lingvomadaniyatshunoslik boʻyicha taniqli xorij tilshunoslaridan V.Gumbolt lingvokulturologiyaning ildiziga asos slogan, E.Sapir va B.Vorf madaniy til tadqiqotlari uchun nazariy bilimlarni mustahkamlashgan, shuningdek, lingvokulturologiyaning rivojida rus tilshunosi V.Maslovaning, oʻzbek tilshunosligida D.Soliyeva, D.Xudayberganova, N.Mahmudov, Sh.Musurmanovalarning, noverbal

vositalarning tilshunoslikda tadqiqida A.Hill, A.Piz, V.Birkenbel, D.Kristal, A.Merabyan, G.Treger, L.Soler, G.Kolshanskiy, G.Kreydlin, Z.Chanesheva, O.Axmanova, S.Stepanov, V.Labunskaya, L.Rabdanovalar, o'zbek tilshunoslaridan A.Nurmonov, M.Saidxonov, S.Mo'minov, M.Kurbanov, M.Burxonova, N.Yuldashev, M.Hakimov, M.Zokirov, Q.Kaharov, N.Xursanov, M.Baratova, A.Meliqo'ziyev va boshqa olimlar tadqiqotlarining o'rni beqiyos.

Natija va muhokama. Talabalarning o'qish va ta'lim jarayonida aloqaga kirishishlari, o'zaro fikr almashishlari, shuningdek, ijtimoiy muloqotlarini rivojlantirish, ularda bu haqida bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish zarur. Verbal muloqotga kirishish talabalarga fikr almashish imkonini bersa, noverbal vositalardan foydalanish fikrni yanada aniq va ravon yetkazish imkonini beradi. Talabalarda verbal va noverbal muloqot usullaridan foydalanishni takomillashtirish ta'lim jarayonining muhim qismi hisoblanadi. O'qituvchi-talaba, talaba-talaba, o'qituvchi-o'qituvchi o'rtasidagi aloqa nafaqat bilim berish va bilimlarni o'zaro almashish, balki ijtimoiy masalalarni hal etish, etiket qoidalariga rioya etish uchun zarurdir. Verbal va noverbal muloqot o'zaro bir-birini taqazo etib, to'ldirib keladi va ta'lim jarayoniga jalb etilganlarning shaxsiy va professional rivojlanishi uchun muhim asos hisoblanadi. Verbal muloqot so'zlarni to'g'ri tanlashni taqazo etsa, noverbal muloqot tanlangan so'zlarni to'g'ri ifodalash, xatti-harakatlar, ovoz ifodasining turli usullaridan foydalanish orqali hissiy muloqotni o'rnatishga sharoit yaratadi. Bu esa, nafaqat ta'lim jarayonini, balki umumiy shaxsiy rivojlantirishni takomillashtiradi.


Talabalardagi verbal muloqotdagi kamchiliklar bir qator holatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Bu holatlar quyidagilar: 1) Nutq tushunmovchiliklari: o'qituvchi va talabalar o'rtasida tilni to'g'ri tushunmaslik muloqot jarayonini murakkablashtiradi; 2) So'z boyligining cheklanganligi: talabalarning so'z boyligi kam bo'lishi natijasida ular o'z fikrlarini aniq ifoda etib bera olmaydi; 3) O'z fikrini ifoda eta olmaslik: talabalar o'z fikrlarini aniq va ravshan ifoda eta olmaydi, chunki ularda uyalish, tortinish va qo'rquv hissi bo'ladi, shu sababli ular muloqotdagi samarasizliklarga duch kelishadi; 4) Guruh ichidagi munosabatlar: talabalar bir-birlari bilan guruh bo'lib shakllanib olganligi uchun ular guruhlariga bo'linganda muloqotdagi zaiflik va moslashishning sekinligi yuzaga kelishi mumkin. Bu esa guruh bo'lib ishlashni qiyinlashtiradi [2].

Talabalardagi noverbal muloqotdagi kamchiliklar quyidagilardan iborat: 1) Jismoniy harakatlar orqali ifoda etishning yetishmasligi: talabalar o'z his-tuyg'ularini, fikrlarini yoki niyatlarini ifoda etishda jismoniy harakatlardan yetarlicha foydalanmasliklari. Buning natijasida fikr to'g'ri tushunilmaydi; 2) Ovoz tonining noto'g'ri ishlatilishi: talabalar o'z so'zlarini kuchli yoki sust tonlarda aytishlari sababli ma'lumotning to'g'ri qabul qilinmasligiga olib keladi; 3) Noverbal harakatlarning chalkashligi: talabalar so'zlardan yoki iboralardan to'g'ri noverbal harakat yoki ishoralarni ishlatishlari tufayli ma'lumotni noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelish mumkin; 4) Muloqot muhitiga moslashtirish

qiyinchiligi: turli muhitlarda (masalan, sinf, laboratoriya, yoki amaliyot) noverbal tilni moslashtira olmaslik natijasida ko‘zlangan maqsadga erishish qiyin kechishi mumkin [3].

Yuqoridagi muammolarga duch kelmaslik, shuningdek, sinfxona menejmentini oqilona tashkil etish maqsadida Amerika maktablarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini sinfxona belgilar tiliga o‘rgatishadi.

Quyida ular bilan tanishib chiqamiz:




Ushbu belgi o‘quvchilarni tartibga solish maqsadida ishlatiladi. Bu belgi ko‘rsatilganda talabalar tinchlik saqlashlari va e‘tiborlarini o‘qituvchiga qaratishlari kerak bo‘ladi.

Beshni ber degan belgi bo‘lib, bir: o‘quvchilarni o‘qituvchiga nigohlarini qaratishlarini, ikki: quloqlari o‘qituvchini tinglayotganini, uch: og‘izlari yumilganini, to‘rt: oyoqlarini chalkashtirib o‘tirib olishlarini, besh: qo‘llarini qovushtirib o‘tirishlarini bildiradi.



Boshqa o‘quvchilarni bezovta qilmagan holda bu belgini o‘qituvchiga ko‘rsatib, tashqariga chiqib kelishni so‘rash belgisi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nogoh o‘rnilaridan turib ketib qolsa, o‘tirib olishlarini shu belgi orqali ovozsiz talab qilish mumkin.



Bosh barmoqni yuqoriga ko‘tarish orqali rozilikni, pastga tushirish orqali norozilikni va yonga qilish orqali kutib turish kerakligini bildiradi.

O‘qituvchi o‘quvchining instruksiyalarga rioya qilganligiga minnatdorchilikni bildirish uchun ushbu belgini ko‘rsatadi. [12].



I have something to add. Ko‘rsatgich barmoqni yuqoriga ko‘tarish Amerika maktablarida “qo‘shimcha qilmoqchiman”, “qo‘shimcha fikrim bor” [11] degan ma’nolarni bildirsa, O‘zbekiston maktablarida bunig uchun butun qo‘l ko‘tariladi, bunda o‘quvchi o‘zinig boshqa javobi bormi yoki bildirilgan fikrga qo‘shimchasi bormi aniqlash mushkul.



Yuqorida keltirilgan belgilar tili sinfni boshqarishda hamda darsni samarali olib borishda juda foydali vosita bo‘lib, uni nafaqat Amerikada balki, dunyoning barcha davlatlarida qo‘llanilsa maqsadga muvoffiq bo‘ladi.

Xulosa. Noverbal vositalar ya'ni xatti-harakatlar, jestlar, imo-ishoralar, mimika, ovoz bilan bog'liq noverbal vositalar ya'ni ovoz balandligi, tezligi, kuychanligi, tembr, temp va boshqalar talabalar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ular o'zaro muloqotni samarali olib borishga yordam beradi. Ular orqali o'quvchi va talabalar boshqalarning his-tuyg'ularini va fikrlarini yaxshiroq tushunishlari, o'zlarining fikrlarini ta'sirchan yetkazish mumkin. Noverbal muloqotdan xabardor bo'lish talabalarning noqulay vaziyatdan chiqib ketish, biron kimni tana harakatlari va ovozi orqali ishonтира olish, munozarali vaziyatlarda samarali debatga kirisha olish imkonini beradi. Muloqotdagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida trening va seminarlarga qatnashish, sobiq FQB agenti, tana tili bo'yicha ekspert Djo Navarro kabi mutaxassislarining videolarini ko'rish, aktyorlik maxoratini rivojlantiradigan amaliy mashg'ulotlarga qatnashish, hofizlar ishtirok etadigan ovoz va artikulyatsiyani yaxshilash kurslariga qatnashish, so'z boyligini oshirish va undan to'g'ri foydalanish maqsadida ko'proq kitob o'qishga targ'ib etish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. [Darwin](#) Ch. The expression of the emotions in man and animals. – New York: 1897. – P.372.
2. Kamolova D., Qayumova M. Talabalarda verbal va noverbal muloqot usullarini shakillantirish bosqichlari. // [pedagoglar.org](#), 2025. – 67-son, – 1-to'plam. – B.175.
3. Kamolova D., Qayumova M. Talabalarda verbal va noverbal muloqot usullarini shakillantirish bosqichlari. // [pedagoglar.org](#), 2025. – 67-son, – 1-to'plam. – B.176.
4. Sobirova N. O'zbek va ingliz tillarida noverbal vositalarning milliy-madaniy xususiyatlari (Tohir Malikning "Talvasa" va Agata Kristining "Staylsdagi sirli voqea" ("The Mysterious Affair at Styles") asarlari misolida): Filol. fan. b. fals. dok (PhD) ... diss. – Farg'ona, 2026. – B.: 16
5. Usmonova D., Raxmonqulova M. Muloqot va unga yondosh tushunchalar. // [Canada international conference on developments in education, sciences and humanities](#), 2023. – Vol.9, – № 1. – B.1.
6. Wanasek S. 13 Essential classroom hand signals you and your students need for smoother discussion. Classroom point blog
7. Xamidova O. Maktab o'qituvchilari faoliyatida kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning ahamiyati. // Worldly knowledge International journal of scientific researchers, 2024. – Vol.5,2. – P.934.
8. <http://hozir.org/muammo-va-echimlar-respublika-ilmij-amaliy-konferenciya-materi.html?Page=40>. (murojaat sanasi: 14.05.2022).
9. <https://en.wikipedia.org/wiki/Quintilian>. (date of access: 20.03.2025).
10. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muloqot>. (murojaat sanasi: 09.07.2024).
11. <https://www.classpoint.io/blog/classroom-hand-signals>. (date of access: 08.02.2026)
12. <https://www.weareteachers.com/hand-signals-in-the-classroom/> (murojaat sanasi: 10.02.2026)